SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

AXRAROVA NARGIZA RAXMONOVNA

HARPER LINING “MAZAXCHINI O‘LDIRISH” VA KREYG SILVINING “JASPER JONS” ROMANLARI O‘RTASIDAGI INTERTEKSTUAL ALOQALAR

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 821.111(73).09-31+821.111(94).09-31

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам

Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences

Axrorova Nargiza Raxmonovna
Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalar.....3

Ахророва Наргиза Рахмоновна
Интертекстуальные связи между романом Харпер Ли «Убить пересмешника» и романом Крэйга Силви «Джаспер Джонс».....27

Akhrorova Nargiza Rakhmonovna
Intertextual Connections between Harper Lee’s To Kill a Mockingbird and Craig Silvey’s Jasper Jones.....55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....60

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

AXROROVA NARGIZA RAXMONOVNA

HARPER LINING “MAZAXCHINI O‘LDIRISH” VA KREYG SILVINING “JASPER JONS” ROMANLARI O‘RTASIDAGI INTERTEKSTUAL ALOQALAR

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fil6098 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.samdchti.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Toirova Dilfuza Fayzullayevna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Umurova Guzal Xatamovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Ikromxonova Firuza Ikromovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "14" noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (64567-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "27" oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "27" oktabr dagi № 58-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida intertekstual yondashuv badiiy matnlar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash, turli davr va madaniyatlar kesimida shakllangan ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarni tahlil qilishning muhim nazariy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Shu jihatdan Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” hamda Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual bog‘liqlikni tadqiq etish zamonaviy filologiya uchun dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Mazkur asarlardagi matnlararo aloqalar semantik va struktur birliklar orqali yangi ma’no qatlamlarini yuzaga chiqaradi hamda milliy adabiyotlarning jahon adabiy jarayoni bilan o‘zaro munosabatini yoritishga xizmat qiladi.

Dunyo adabiyotshunosligida mazkur tadqiqotning o‘rni Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” hamda Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlarida adolat, insonparvarlik va erkinlik g‘oyalarining turli milliy-madaniy kontekstlarda badiiy talqin qilinishini aniqlash bilan belgilanadi. Harper Li romanida Amerika jamiyatidagi ijtimoiy-axloqiy muammolar yoritilgan bo‘lsa, Kreyg Silvi asarida ushbu g‘oyalar Avstraliya adabiy muhiti doirasida davom ettiriladi. Qahramonlarning o‘zligini anglash jarayoni, jamiyatdagi stereotiplarga munosabati va adolat mezonining badiiy ifodasi ikki roman o‘rtasidagi dialogik bog‘liqlikni namoyon etadi. Shu bois intertekstual yondashuv mazkur asarlarning badiiy qiymati, madaniy-tarixiy konteksti va jahon adabiy jarayonidagi o‘rnini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyotshunosligida ilmiy izlanishlar yangi bosqichga ko‘tarilib, milliy adabiy merosni qayta tadqiq etish, adabiy jarayonlarni tarixiy-madaniy kontekstda yoritish hamda zamonaviy nazariy yondashuvlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, intertekstual tahlil badiiy matnning ko‘p qatlamli mazmunini, uning madaniy kontekstlar tizimidagi o‘rnini va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini berdi. Bu esa o‘zbek adabiyotshunosligining jahon adabiy jarayoni bilan ilmiy-nazariy integratsiyasini kuchaytirdi. Mamlakatimizda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning ilmiy-amaliy zaruratini yanada oshirmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvarda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlarini rivojlantirish to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevralda “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-son

Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustda “Ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarori hamda ushbu soha bilan bog‘liq boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda qator boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rus adabiyotshunosligida intertekstuallik, dialogizm, matn semiotikasi, madaniy kod va matnlararo aloqa masalalari M.M.Baxtin, Yu.M.Lotman, V.N.Toporov, B.A.Uspenskiy, N.A.Fateyeva, I.P.Smirnov kabi olimlarning tadqiqotlarida nazariy jihatdan asoslangan. M.M.Baxtinning dialogizm haqidagi qarashlari intertekstual yondashuvning shakllanishiga nazariy zamin yaratgan. Yu.M.Lotman badiiy matnni semiotik tizim sifatida o‘rganish imkoniyatlarini ko‘rsatib bergan. V.N.Toporov va B.A.Uspenskiy tadqiqotlarida matn, madaniyat, belgi va semiotik tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari yoritilgan. N.A.Fateyeva va I.P.Smirnov ishlarida esa intertekstuallik badiiy matnning semantik tuzilishi, “begona matn” bilan munosabati, allyuziya, reminissensiya va iqtibos kabi shakllar orqali yuzaga chiqadigan murakkab matnlararo hodisa sifatida izohlangan[1].

Chet el adabiyotshunosligida intertekstuallik masalasi Yu.Kristeva, R.Bart, G.Jenett, M.Riffaterre, J.Culler, L.Jenny, G.Allen kabi olimlarning tadqiqotlarida nazariy jihatdan asoslangan. Yu.Kristeva “intertekstuallik” atamasini ilmiy muomalaga kiritib, matnni boshqa matnlar bilan doimiy aloqada mavjud bo‘ladigan hodisa sifatida talqin qilgan[2].

O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik, lingvokulturologik, kognitiv-semantik va antroposentrik tadqiqi M.Yo‘ldoshev, D.Xudoyberganova, D.F.Toirova, M.Xomidova, L.U.Muzafarova kabi

---

[1]Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советская Россия, 1979. – 318 с.; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 384 с.; Топоров В.Н. Пространство и текст // Текст: семантика и структура. – Москва: Наука, 1983. – С. 227-284; Успенский Б.А. Семиотика искусства. – Москва: Языки русской культуры, 1995. – 360 с.; Фатеева Н.А. Интертекст в мире текстов: Контрапункт интертекстуальности. – Москва: КомКнига, 2007. – 280 с.; Смирнов И.П. Порождение интертекста: элементы интертекстуального анализа с примерами из творчества Б.Л. Пастернака. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный университет, 1995. – 189 с.

[2] Kristeva J. Word, Dialogue and Novel // The Kristeva Reader / Ed. by T. Moi. – New York: Columbia University Press, 1986. – P. 34-61.; Barthes R. The Death of the Author // Image, Music, Text / Trans. by S. Heath. – London: Fontana Press, 1977. – P. 142–148.; Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree / Trans. by C. Newman, C. Doubinsky. – Lincoln; London: University of Nebraska Press, 1997. – 490 p.; Riffaterre M. Semiotics of Poetry. – Bloomington: Indiana University Press, 1978. – 213 p.; Culler J. The Pursuit of Signs: Semiotics, Literature, Deconstruction. – London: Routledge, 1981. – 242 p.; Jenny L. The Strategy of Form // French Literary Theory Today: A Reader / Ed. by T. Todorov. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982. – P. 34-63; Allen G. Intertextuality. – London; New York: Routledge, 2000. – 238 p.

tadqiqotchilar ishlarida yoritilgan. M.Yo‘ldoshev badiiy matnning lisoniy va lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilishga e’tibor qaratgan. D.Xudoyberganova matnni antroposentrik paradigma asosida tadqiq etib, uning kognitiv-semantik, lingvokulturologik va psixolingvistik xususiyatlarini o‘rgangan. D.F.Toirova tadqiqotlarida badiiy matn, lingvopoetik tahlil, til va poetik vositalar uyg‘unligi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilingan. M.Xomidova izlanishlarida esa o‘zbek badiiy matnida universal intertekstual birliklar, allyuziya va precedent birliklarning qo‘llanish xususiyatlari o‘rganilgan. L.U.Muzafarova tadqiqotida esa J.D.Selinjer asarlari misolida bilim tuzilmalarining badiiy intertekstuallik ko‘lamida konseptuallashuvi, intertekstual makonda kognitiv birliklarning shakllanishi va voqelanish mexanizmlari tahlil qilingan[3].

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Yangi O‘zbekistonda til, adabiyot, tafakkur va jamiyatning o‘zaro aloqalari, sun‘iy intellekt va raqamli tadqiqotlar” mavzusidagi ilmiy yo’nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalarni syujet qurilishi, obrazlar tizimi, motivlar, ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar va milliy-madaniy kontekstlar kesimida aniqlash hamda ularning Amerika va Avstraliya adabiy jarayonidagi badiiy-estetik funksiyasini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalarni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash hamda ularni Amerika va Avstraliya adabiy kontekstlari bilan bog‘liq holda tahlil qilish;

“Jasper Jons” romanida “Mazaxchini o‘ldirish” asariga xos adolat izlash, begunoh shaxsning jamiyat tomonidan ayblanishi, bolalik nigohi orqali ijtimoiy haqiqatni anglash va voyaga yetish motivlarining intertekstual aloqalar orqali qayta talqin qilinishini ochib berish;

Skaut Finch – Charli Baktin, Tom Robinson – Jasper Jons, Bu Redli – Mad Jack Lionel obrazlari misolida intertekstual aloqalarning obrazlar tizimidagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini asoslash;

ikki romanda irqiy va etnik stereotiplar, jamiyat hukmi, vijdon, insonparvarlik hamda erkinlik g‘oyalarining intertekstual aloqalar orqali universal badiiy-falsafiy mazmun kasb etishini ilmiy umumlashtirish.

---

[3] Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Adabiyot, 2007. – 128 b.; Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.; Toirova D.F. The Traditional Prestige of France as the Trendsetter of World Literary Fashion in the 20th Century // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. – 2025. – Vol. 03, № 04. – P. 186–189.; Xomidova M.F. Universal Intertextual Units in the Uzbek Literary Text // International Journal of Research. – 2019. – Vol. 6, № 13. – P. 396-404.; Muzafarova L.U. *Bilim tuzilmalarining badiiy intertekstuallik ko‘lamida konseptuallashuvi* (J.D.Selinger asarlari misolida): filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 24 b.

Tadqiqot obyekti sifatida Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” hamda Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari misolida tanlab olingan asarlarda qo‘llanilgan intertekstual aloqalarning syujet parallelizmi, obrazlar tizimi, motivlar, ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar va madaniy kodlar orqali badiiy-estetik namoyon bo‘lish xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda intertekstual tahlil, tipologik tahlil, struktur-semantik tahlil, tarixiy-madaniy va kontekstual yondashuv tamoyillaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalarning syujet parallelizmi, motivlarning qayta semantizatsiyasi, obrazlarning funksional transformatsiyasi hamda g‘oyaviy-estetik qatlamlarning o‘zaro bog‘lanishiga asoslangan ko‘p bosqichli struktur-semantik tizimi aniqlangan;

“Mazaxchini o‘ldirish” romaniga xos adolat izlash, begunoh shaxsning jamiyat tomonidan ayblanishi, bolalik nigohi orqali ijtimoiy haqiqatni anglash va voyaga yetish motivlarining “Jasper Jons” romanida Avstraliya adabiy-madaniy konteksti ta’sirida qayta semantizatsiyalanishi hamda tashqi ijtimoiy-huquqiy ziddiyatdan ichki axloqiy-psixologik konfliktga transformatsiyalanish xususiyatlari asoslangan;

Skaut Finch – Charli Baktin, Tom Robinson – Jasper Jons, Bu Redli – Mad Jack Lionel obrazlari o‘rtasidagi intertekstual munosabatlarning syujetiy o‘xshashlik doirasidan chiqib, haqiqatni anglovchi qahramon, jamiyat hukmi qurboni va ijtimoiy muhitdan chetlashtirilgan shaxs kabi funksional-semantik modellar asosida shakllanishi ochib berilgan;

Harper Li romanidagi irqiy adolatsizlik, jamiyat hukmi va huquqiy adolat paradigmasining Kreyg Silvi romanida etnik begonalashtirish, shaxsiy vijdon va axloqiy mas’uliyat paradigmasiga badiiy transformatsiyalanishi natijasida milliy-madaniy muammolarning universal badiiy-falsafiy mazmun kasb etish qonuniyatlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalarni tahlil qilish asosida badiiy matnni intertekstual yondashuv orqali o‘rganishga doir ilmiy-metodik xulosalar ishlab chiqildi. Tanlab olingan romanlarda syujet parallelizmi, obrazlar tizimi, motivlar uyg‘unligi, adolat, insonparvarlik, irqiy va etnik stereotiplar, jamiyat hukmi hamda axloqiy mas’uliyat kabi g‘oyalarni tahlil qilishga oid materiallardan “Jahon adabiyoti”, “Amerika adabiyoti”, “Avstraliya adabiyoti” va “Zamonaviy ingliz adabiyoti” fanlari mazmunini boyitishda foydalanish imkoniyati aniqlangan.

Skaut Finch – Charli Baktin, Tom Robinson – Jasper Jons, Bu Redli – Mad Jack Lionel obrazlari o‘rtasidagi funksional yaqinliklarni tahlil qilish orqali talabalarda badiiy obraz, matnlararo aloqa va madaniy kontekstni anglash

kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan nazariy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Tadqiqot natijalari asosida badiiy matn tahliliga oid amaliy mashg‘ulotlar, seminar ishlari, mustaqil ta’lim topshiriqlari, maxsus kurs materiallari, o‘quv qo‘llanma va ilmiy maqolalar tayyorlash uchun metodik asos yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda foydalanilgan tahlil usullari va nazariy-metodologik yondashuvlarning dissertatsiya maqsadi hamda vazifalariga mos tanlangani, Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari asl badiiy manba sifatida tahlilga tortilgani, intertekstuallik nazariyasiga oid xorijiy, rus va o‘zbek adabiyotshunosligidagi ilmiy qarashlarga tayanilgani, ikki roman o‘rtasidagi matnlararo aloqalar syujet qurilishi, obrazlar tizimi, motivlar, ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar va madaniy kodlar asosida dalillangani, shuningdek, chiqarilgan xulosalarning ilmiy-nazariy asoslanganligi va tahliliy izchilligi orqali belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy ahamiyati uning dolzarbligi va ilmiy yangiligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalarni syujet qurilishi, obrazlar tizimi, motivlar, ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar va madaniy kodlar kesimida o‘rganish orqali Amerika hamda Avstraliya adabiyoti, zamonaviy roman poetikasi, matnlararo muloqot va badiiy obrazlar transformatsiyasiga oid ilmiy bilimlarning kengayishiga, intertekstual tahlil yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borishga, magistrlik dissertatsiyalari tayyorlashga manba bo‘ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va tahliliy materiallardan oliy ta’lim muassasalarida “Jahon adabiyoti”, “Amerika adabiyoti”, “Avstraliya adabiyoti”, “Zamonaviy ingliz adabiyoti” va “Adabiyot nazariyasi” kabi fanlarni o‘qitishda, maxsus kurslar, seminar mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim topshiriqlari hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalarni syujet qurilishi, obrazlar tizimi, motivlar, ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar hamda milliy-madaniy kontekstlar kesimida aniqlashga qaratilgan ilmiy xulosalar asosida:

Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqalarning obrazlar tizimi, xususan, axloqiy ideal, voyaga yetish jarayonidagi qahramon, jamiyat qurboni, ijtimoiy muhitdan chetlashtirilgan obrazlar hamda obrazlar transformatsiyasi asosida tahlil qilinishiga oid ilmiy-nazariy xulosalar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2023-yil 18-maydagi 156-son buyrug‘i asosida 2023–2024-yillarda amalga oshirilgan AI201704-sonli “Umumta’lim muassasalari bitiruvchilarining ona tili fani bo‘yicha malakasini baholash hamda 14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish” nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish

va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutining 2025-yil 16-oktabrdagi №03-17-09-975-son ma’lumotnomasi). Natijada, umumta’lim maktablarida adabiyot fanini zamonaviy nazariy yondashuvlar, xususan, intertekstual tahlil tamoyillari asosida o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual elementlarning badiiy-estetik funksiyalari, milliy va global adabiy kontekstlar, adabiy an’ana va janrlararo davomiylik, AQSh hamda Avstraliya madaniy kodlarining yaqinligi, ijtimoiy tanqidning umumadabiy modeli, milliy muammo va irqchilik masalalarining matnlararo muloqot orqali ifodalanishiga oid ilmiy xulosalardan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti ERASMUS+ dasturining QUARTZ – “Quality Assurance for Reform and Transformation of HEIs in Uzbekistan” loyihasida foydalanilgan (“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining 2025-yil 15-oktabrdagi 2379-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yosh avlodda badiiy-estetik did, adabiy tafakkur va talqin madaniyatini rivojlantirish, milliy hamda jahon adabiy merosiga nisbatan ongli va tanqidiy munosabatni shakllantirishga xizmat qilgan;

Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual elementlarning badiiy-estetik funksiyalari, matnlararo muloqotning iqtibos, reminissensiya, allyuziv ishora, syujet parallelizmi va obrazlar transformatsiyasi orqali namoyon bo‘lishiga oid ilmiy xulosalardan 2025-yil oktyabr oyida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyati teleradiokanalining “Kun mavzusi” nomli eshittiruvi uchun ssenariy tayyorlash jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyati teleradiokanalining 2025-yil 13-oktabrdagi 01-07/339-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Amerika va Avstraliya adabiyotiga mansub mazkur romanlardagi intertekstual aloqalar, adolat, insonparvarlik, ijtimoiy tenglik va axloqiy mas’uliyat g‘oyalarining badiiy talqini keng kitobxonlar ommasiga yetkazilgan;

Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlarida adolat, insonparvarlik, erkinlik, teng huquqlilik va axloqiy mas’uliyat g‘oyalarining intertekstual aloqalar orqali badiiy talqin qilinishiga oid ilmiy xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR 3181 “Reinforcing English Language Competence at Karshi State University” xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 30-oktabrdagi 04/5997-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tili va jahon adabiyotiga oid mashg‘ulotlarda talabalarning badiiy matnni intertekstual yondashuv asosida anglash, adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirish hamda adolat, insonparvarlik va erkinlik g‘oyalarini zamonaviy adabiy jarayon bilan bog‘liq holda talqin qilish ko‘nikmalari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish nashr qilingan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAK

ro‘yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallarda 4 ta maqola, xalqaro ilmiy jurnallarda 4 ta maqola, xalqaro konferensiyalarda 3 ta maqola va respublika ilmiy konferensiyalarida 2 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matni 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob’ekti, predmeti va usullari ko‘rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiya, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Klassik va zamonaviy romanlarda intertekstual aloqalarning nazariy asoslari**” deb nomlanib, unda asosan intertekstuallik hodisasining nazariy asoslari, uning adabiy jarayondagi o‘rni va metodologik ahamiyati tahlil qilingan.

Tadqiqotda intertekstuallik konsepsiyasi adabiy matnni boshqa matnlar bilan uzviy muloqotda shakllanadigan ochiq tizim sifatida talqin etadi. Shu orqali har bir asar o‘ziga xos semantik maydon yaratar ekan, u madaniy xotira, tarixiy izchillik va estetik an’analarning davomchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu bobning **“Intertekstual aloqalarning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi faslida, intertekstuallik hodisasining nazariy asoslari, uning adabiy jarayondagi o‘rni va metodologik ahamiyati yoritilgan. Intertekstuallik tushunchasi M.M.Baxtinning dialogizm nazariyasidan boshlangan bo‘lib, Yu.Kristeva tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Tadqiqotda R.Bart, G.Jenet, V.Lukin, V.Chernyavskaya kabi olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilinib, intertekstuallikning badiiy matn mazmuni va strukturasi bilan uzviy aloqasi ilmiy asosda ochib berilgan.

Intertekstuallik nazariy konsepsiyasi ilk bor M.M.Baxtin tomonidan matnning ochiq tizim sifatida qaralishi, uning dialogik tabiatini asoslashda nazariy poydevor sifatida shakllangan edi[4]. Keyinchalik Yu.Kristeva intertekstuallik (*intertextualité*) atamasini ilmiy muomalaga kiritib, matnlarning o‘zaro aloqasi va mazmuniy qatlamlarining shakllanish mexanizmini lingvosemiotik nuqtai nazardan yoritib berdi[5]. R.Bart esa matnni o‘quvchi idroki orqali jonlanadigan ko‘p ovozli tuzilma sifatida talqin qilib, intertekstuallikni adabiy tanqidning markaziy kategoriya darajasiga ko‘tardi[6].

---

[4] Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Советский писатель, 1972. – С. 158–160.
[5] Kristeva J. Séméiotiké: Recherches pour une sémanalyse. – Paris: Seuil, 1969. – P. 146–147.
[6] Barthes R. Texte (théorie du) // Encyclopædia Universalis. – Paris, 1973. – P. 1012–1015.

Shuningdek, G.Jenet intertekstual munosabatlarni bevosita sitatalar, reministsensiyalar, alluziyalar va pastishlar orqali aniqlab, ularni intertekstuallik (*intertextualité*) nazariyasi asosida tizimlashtirdi[7]. Uning qarashlari matnlararo bog‘lanishlarning tipologik tavsifini ishlab chiqishda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qildi.

Harper Lining *“Mazaxchini o‘ldirish”* (*To Kill a Mockingbird)* asarida adolat, irqiy tengsizlik va ijtimoiy ong muammolari badiiy talqin etilsa, Kreyg Silvining *“Jasper Jons” (Jasper Jones)* romanida ham xuddi shu masalalar o‘ziga xos intertekstual asosda qayta aks etadi. Bunda qahramonlarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni, jamiyatdagi stereotiplar bilan kurashish, shuningdek, adolat va insoflilik kabi universal qadriyatlarning yoritilishi ikki matn o‘rtasidagi dialogik bog‘liqlikni yaqqol ko‘rsatadi. Bu intertekstual o‘xshashliklar adabiyotda ma’lum bir an’ananing davomiyligini ta’minlaydi va yangi badiiy-estetik qirralarni yuzaga chiqaradi.

“With this singular novel, Silvey confirms his place as a young writer to watch. In all important respects Jasper Jones is an Australian To Kill a Mockingbird.”[8] - M.Uilyams “The Monthly” gazetasidagi maqolasida Kreyg Silvining *“Jasper Jons”* romaniga baho berar ekan: “Silvi ushbu betakror romani bilan kelajagi porloq yosh yozuvchi sifatidagi o‘rnini mustahkamladi. Barcha muhim jihatlarda “Jasper Jons” Avstraliyaning “Mazaxchini o‘ldirish” asaridir[9], – deb ta’kidlaydi. Ushbu baho “Jasper Jons” romanining Harper Li asari bilan mavzu, syujet vaziyati, obrazlar tizimi va ijtimoiy-axloqiy muammolar kesimida intertekstual bog‘liqlikka ega ekanini ko‘rsatadi.

Bobning ikkinchi fasli “**Klassik adabiy an’analarning zamonaviy roman poetikasida aks etishi**” deb nomlanib, adabiyotdagi tarixiy izchillik, meros va yangilanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tahlil qilinadi. Unda klassik adabiyotning zamonaviy badiiy tafakkurga estetik, falsafiy va g‘oyaviy jihatdan ko‘rsatgan ta’siri yoritilgan. Har bir davr adabiyoti avvalgi avlodlarning tajribasiga tayangan holda rivojlanadi; shu bois klassik meros yangi asarlar uchun badiiy va g‘oyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Klassik merosning ta’siri syujet va motivlar bilan cheklanmaydi. U badiiy til, uslub, obraz yaratish tamoyillari va janr imkoniyatlari orqali ham zamonaviy adabiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shekspirning badiiy tili va dramaturgik uslubi keyingi davr yozuvchilari uchun maktab bo‘lib xizmat qilgan, L.Tolstoy va F.Dostoyevskiy romanlari esa inson psixologiyasini chuqur tasvirlashda zamonaviy adabiyot uchun yangi ufqlar ochgan. Shu tarzda klassik asarlar zamonaviy yozuvchilar uchun nafaqat namuna, balki ijodiy bahs va tahlil manbai sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Klassik adabiy an’analar zamonaviy badiiy tafakkur rivojining uzviy qismi sifatida talqin etilib, ularning estetik, falsafiy va g‘oyaviy ta’siri ilmiy asosda

---

[7] Genette G. Palimpsestes: La littérature au second degré. – Paris: Seuil, 1982. – P. 7–15.

[8] Williams M. Jasper Jones: A Novel by Craig Silvey // The Monthly. – 2009. – May 5. – URL: https://www.themonthly.com.au/arts-letters/jasper-jones-novel-craig-silvey (murojaat sanasi: 19.05.2024).

[9] Dissertatsiyada ingliz tilidan o‘zbek tiliga berilgan tarjimalar dissertant tomonidan amalga oshirilgan.

yoritilgan. Tadqiqotda klassik merosning zamonaviy ijodiy jarayonlarga ta’siri ikki yo‘nalishda – mazmuniy va shakliy transformatsiya asosida tahlil qilingan. Klassik asarlardagi g‘oyaviy izchillik, badiiy ifoda vositalari hamda axloqiy qadriyatlar zamonaviy yozuvchilarning asarlarida intertekstual aloqalar – alluziya va reministsensiya orqali yangi estetik kontekstda qayta talqin etilishi ko‘rsatib berilgan.

Bobning “**Intertekstual yondashuvning zamonaviy adabiy jarayondagi funksional ahamiyati**” deb nomlangan uchinchi faslda intertekstuallik nazariyasining amaliy qo‘llanilishi, uning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi metodologik ahamiyati va badiiy matn tahlilidagi imkoniyatlari yoritilgan. Unda intertekstual tahlil badiiy asarlarning semantik qatlamlarini ochib beruvchi samarali ilmiy-uslubiy yondashuv sifatida talqin qilingan.

Intertekstuallik nazariyasining shakllanish manbalari an’anaviy ravishda bir necha ilmiy qarashlarga tayanadi. Avvalo, F. de Sossyurning **anagrammalar nazariyasi** matn ichidagi yashirin fonetik va semantik parallelizmlarni izohlab, keyingi davrda matnlararo aloqalarni tadqiq etish uchun nazariy zamin yaratdi. Shuningdek, Yu.N.Tinyanovning **parodiya haqidagi ta’limoti** intertekstual jarayonlarning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida qadrlanadi. U parodiyani badiiy matnni inkor qilish emas, balki mavjud asarni yangicha talqin qilish usuli sifatida izohlagan.

M.M.Baxtinning **dialogizm nazariyasi** va **polifonik roman haqidagi konsepsiyasi** intertekstuallikni yanada kengroq talqin qilish imkonini berdi. Baxtin matnni yopiq struktura emas, balki boshqa matnlar, ijtimoiy diskurslar va madaniy kontekstlar bilan muloqotda yashovchi ochiq tizim sifatida izohlaydi[10].

Mazkur nazariy qarashlar keyinchalik Yu.Kristeva tomonidan tizimlashtirilib, “*intertekstuallik*” termini bilan ilmiy muomalaga kiritildi. Shu tariqa intertekstual yondashuv matnni adabiy hodisa sifatida kengroq anglash, uning adabiy jarayondagi o‘rni va ijtimoiy-estetik vazifalarini talqin qilish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Jennetning fikricha, intertekstual aloqa turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: matnlar bir-biriga ochiq havola qilishi, yashirin iqtiboslar orqali ishora qilishi yoki o‘quvchiga tanish madaniy kodlar orqali o‘zaro bog‘lanishi mumkin[11]. Demak, aytish joizki, J.Jennetning intertekstuallikka doir qarashlari ushbu hodisaning nazariy manzarasini yanada boyitadi. U intertekstuallikni faqat umumiy madaniy jarayon sifatida emas, balki matnlararo aloqaning aniq shakllari orqali ham tushuntiradi. Bu esa intertekstual yondashuvni adabiy jarayonni chuqurroq o‘rganish uchun ikki qirrali – keng falsafiy va konkret lingvopoetik – darajada qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida tahlil etilgan ilmiy manbalar va nazariy yondashuvlar asosida ta’kidlash joizki, intertekstuallik bugungi adabiyotshunoslikda markaziy konseptual kategoriya sifatida qaraladi. U matnni mustaqil va yopiq tuzilma sifatida emas, balki boshqa matnlar bilan uzluksiz aloqada mavjud bo‘ladigan

[10] Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Советская Россия, 1972. – С. 98.
[11] O‘sha manba – C. 10

ochiq hamda dinamik tizim sifatida tahlil etish imkonini beradi. Intertekstual yondashuv badiiy matnning mazmuniy qatlamlarini chuqurroq ochish, uning madaniy va ijtimoiy kontekstlar bilan uzviy bog‘liqligini aniqlash hamda estetik imkoniyatlarini kengroq talqin qilishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Mazaxchini o‘ldirish” va “Jasper Jons” romanlarida intertekstual aloqalarning tematik-g‘oyaviy asoslari** deb nomlangan bo‘lib, unda ikki asar o‘rtasidagi intertekstual munosabatlar, g‘oyaviy yaqinlik va badiiy izchillik tahlil qilingan. Bobda Harper Li va Kreyg Silvi romanlarining tematik asoslari – adolat, inson qadr-qimmati, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, axloqiy tanlov va voyaga yetish motivlari – tahlil asosda o‘rganilgan.

Tahlil jarayonida “Mazaxchini o‘ldirish” romanidagi ijtimoiy-axloqiy muammolar “Jasper Jons” asarida yangi madaniy kontekstda, zamonaviy ijtimoiy tafakkur bilan uyg‘un tarzda qayta talqin etilgani aniqlangan. Har ikkala asarda ham qahramonlarning ichki o‘sish jarayoni, jamiyat bosimiga qarshi turish, vijdon va adolat g‘oyalarining ustuvorligi intertekstual mexanizmlar orqali ochib berilgan.

Shu tariqa, bobda ikki asar o‘rtasidagi tematik uyg‘unlik, obrazlar tizimi va badiiy ifoda usullarining tahlil asosida intertekstuallik adabiyotdagi madaniy va g‘oyaviy davomiylikni ta’minlovchi muhim estetik tamoyil sifatida yoritilgan.

Ikkinchi bobning birinchi fasli – **““Mazaxchini o‘ldirish” va “Jasper Jons” romanlarida adolat, insonparvarlik va ijtimoiy tenglik motivlarining badiiy talqini”** deb nomlanib, unda har ikkala yozuvchining asarlarida ilgari surilgan asosiy g‘oyalar, badiiy yo‘nalish va falsafiy mazmunning o‘zaro uyg‘unligi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Insoniyat tarixida irqiy, diniy va madaniy farqlar asosida kamsitish hodisalari turli davrlarda ijtimoiy munosabatlarning keskin muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lgan. Antik jamiyatlarda insonning ijtimoiy maqomi ko‘pincha fuqarolik huquqi, etnik kelib chiqishi va diniy mansubligi bilan belgilangani bois tengsizlik ijtimoiy tartibning muayyan shakli sifatida qaralgan[12]. Feodal va keyingi tarixiy bosqichlarda esa diniy hamda etnik tafovutlar siyosiy, iqtisodiy va huquqiy cheklovlar orqali mustahkamlanib, ayrim guruhlarning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi omilga aylangan[13].

“Rasizm” atamasi XX asrning birinchi yarmidan boshlab ilmiy va ijtimoiy-siyosiy muomalada faol qo‘llana boshlagan bo‘lib, dastlab bir irqning boshqalar ustidan ustunligini asoslovchi qarashlar tizimi sifatida izohlangan[14]. Keyingi davrlarda bu tushuncha faqat biologik irqiy farqlar bilan cheklanmay, etnik, madaniy, diniy va ijtimoiy mezonlar asosidagi kamsitish shakllarini ham qamrab oldi. Encyclopaedia Britannicada rasizm insonlarni alohida biologik “irq”larga ajratish, jismoniy belgilar bilan intellekt, axloq va xulq-atvor o‘rtasida sababiy bog‘liqlik bor deb hisoblash hamda ayrim irqlarni boshqalardan ustun qo‘yish e’tiqodi sifatida ta’riflanadi[15].

---

[12] Finley M.I. The Ancient Economy. – Berkeley; Los Angeles: University of California Press, 1999. – 262 p.
[13] Bloch, M. Feudal Society. – London: Routledge & Kegan Paul, 1961, – P. 112–118.
[14] Lee H. To Kill a Mockingbird. – New York: Grand Central Publishing, 1982. – 323 p.
[15] Encyclopaedia Britannica. Racism. – Chicago: Encyclopaedia Britannica, 2010. – Vol. 26. – P. 480-485.

Harper Lining *“To Kill a Mockingbird”* (“Mazaxchini o‘ldirish”) romani va Craig Silvining *“Jasper Jons”* (“Jasper Jones”) asari o‘zaro tematik va g‘oyaviy uyg‘unlik kasb etadi. Har ikkala adib o‘z badiiy qarashlarida bolalik tajribasi, axloqiy yetilish jarayoni hamda ijtimoiy tengsizlik masalalarini yoritish orqali jamiyatdagi adolat tushunchasini yangi ma’noda talqin qilishga intilgan.

Xulosa qilib aytganda, Harper Li va Kreyg Silvining asarlari insonparvarlik, axloqiy tanlov va jamiyatdagi haqiqat izlash g‘oyalarini turli davr va muhitda ifodalagan holda, badiiy tafakkurning uzviyligini va adabiyotdagi madaniy davomiylikni ta’minlagan.

Ushbu bobning ikkinchi fasli **“Mazaxchini o‘ldirish” romanining “Jasper Jons” bilan intertekstual muloqotdagi g‘oyaviy-estetik tayanchlari** deb nomlangan bo‘lib, Harper Lining “*Mazaxchini o‘ldirish*” romanida ko‘rsatilganidek, huquqiy tenglikning e’lon qilinishi jamiyat ongidagi irqiy stereotiplar va adolatsiz munosabatlarni darhol bartaraf eta olmadi. Tom Robinson obrazining begunoh bo‘la turib ayblanishi aynan shu tarixiy-ijtimoiy ziddiyatning badiiy ifodasidir. Kreyg Silvining “*Jasper Jons*” romanida esa mazkur motiv Avstraliya muhiti asosida qayta talqin qilinadi: Jasper Jons ham jamiyat tomonidan kelib chiqishi va ijtimoiy mavqei sababli oldindan aybdor sifatida qabul qilinadi. Shu jihatdan “*Mazaxchini o‘ldirish*”dagi irqiy adolatsizlik motivi “*Jasper Jons*”da etnik va ijtimoiy begonalashtirish shaklida intertekstual davom ettiriladi. Ushbu holat ikki roman o‘rtasidagi intertekstual bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Harper Li Tom Robinson obrazi orqali irqiy adolatsizlikni ochib bersa, Kreyg Silvi Jasper Jons obrazi orqali shu motivni Avstraliya jamiyatidagi etnik va ijtimoiy begonalashtirish bilan bog‘laydi. Demak, “*Jasper Jons*” romanida “*Mazaxchini o‘ldirish*”dagi begunoh shaxsning jamiyat tomonidan ayblanishi motivi yangi kontekstda davom ettiriladi.

1861–1865-yillardagi Amerika fuqarolar urushi natijasida Shimoliy shtatlarning g‘alabasi mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish yasadi. Bu g‘alaba nafaqat afroamerikalik aholining qullikdan ozod qilinishi bilan, balki jamiyatda inson huquqlari va fuqarolik tengligi tamoyillarining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi bilan ham tarixiy ahamiyat kasb etdi. Mazkur jarayon Qo‘shma Shtatlar tarixida inson erkinligi g‘oyasining huquqiy asoslarini yaratib, keyingi siyosiy islohotlarga zamin hozirladi[16].1861-1865-yillardagi Amerika fuqarolar urushi va 1868-yilda qabul qilingan O‘n to‘rtinchi tuzatma AQShda teng huquqlilik g‘oyasini konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi. Biroq bu huquqiy o‘zgarishlar jamiyat ongidagi irqiy kamsitishlarni darhol yo‘qota olmadi. Keyingi davrda “*Jim Crow qonunlari*” orqali qora tanli aholining ijtimoiy hayoti, ta’lim olishi, mehnat faoliyati va jamoat joylaridan foydalanishi cheklab qo‘yildi. Harper Lining “*Mazaxchini o‘ldirish*” romanida Tom Robinsonning sud qilinishi aynan qonuniy tenglik bilan amaldagi irqiy adolatsizlik o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Kreyg Silvining “*Jasper Jons*” romanida esa ushbu motiv Jasperning etnik

[16] https://www.archives.gov/milestone-documents/14th-amendment (murojaat sanasi: 04.04.2025).

kelib chiqishi va ijtimoiy mavqei sababli jamiyat tomonidan oldindan aybdor sifatida qabul qilinishi orqali davom ettiriladi.

Mazkur davrda fuqarolik huquqlari harakati Martin Lyuter King rahbarligida yangi bosqichga ko‘tarildi. U o‘zining 1963-yil 28-avgust kuni Vashingtonda so‘zlagan “*I have a dream*” (“Menda orzu bor”) nutqida insoniyat tarixidagi eng muhim g‘oyalardan birini – irqdan qat’i nazar teng huquqlilik tamoyilini ilgari surdi[17]. Aynan shu g‘oya o‘sha davr madaniy muhitida san’at va adabiyot orqali o‘zining kuchli ifodasini topdi.

I dream that one day this nation will straighten up and live according to the true meaning of its principle: "We consider it self-evident that all people are created equal." I dream that one day on the red hills of Georgia, the sons of former slaves and the sons of former slave owners will be able to sit together at a brotherly table... I dream today!" Martin Lyuter King, 1963-yil 28-avgust[18] - ....“*Men orzu qilamanki, bir kun kelib bu millat qaddini rostlab, o‘zining ‘Biz barcha odamlar teng qilib yaratilganini o‘z-o‘zidan ravshan deb bilamiz’ degan qoidasining asl ma’nosiga muvofiq yashaydi. Bir kunmas bir kun Jorjiyaning qizil tepaliklarida sobiq qullarning o‘g‘illari va sobiq quldorlarning o‘g‘illari birodarlik dasturxoni atrofida o‘tirishlarini orzu qilaman... Men bugun orzu qilaman*!” *– Martin Lyuter King, 1963-yil 28-avgust*[19].

Shu davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida oq tanli yozuvchilarning, xususan, Harper Li kabi ijodkorlarning adabiy faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi. Uning *Mazaxchini o‘ldirish* asari irqiy tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan tanqidiy qarashlarni kuchaytirib, keng kitobxonlar ongida insoniylik, adolat va vijdon haqidagi tasavvurlarni yangilashda muhim rol o‘ynadi. Harper Li mazkur asar orqali Amerika janubida chuqur ildiz otgan irqchilik mafkurasini badiiy vositalar bilan fosh etib, empatiya, bag‘rikenglik va hamdardlik kabi ijtimoiy qadriyatlarning qayta tiklanishiga turtki berdi[20]. Asarning 1960-yilda, ya’ni Martin Lyuter Kingning mashhur nutqidan uch yil avval va uning fojeali o‘limidan sakkiz yil oldin nashr etilgani, uni nafaqat adabiy, balki tarixiy kontekstdagi muhim voqelik sifatida ham e’tirof etishga asos yaratadi[21].

Harper Lining “*Mazaxchini o‘ldirish*” romanida 1930-yillar Amerika janubiga xos ijtimoiy muhit badiiy realizm asosida tasvirlanadi. Meykomb shahri obrazi orqali iqtisodiy tanglik, ijtimoiy sustlik va irqiy tengsizlik hukm surgan makon yaratiladi. Asarda quyidagicha tasvirlangan:

“*Maycomb was an old town…. In rainy weather the streets turned to red slop; grass grew on the sidewalks, the courthouse sagged in the square. Somehow, it was hotter then: a black dog suffered on a summer’s day, bony mules hitched to*

---

[17] Encyclopaedia Britannica. Racism. – Chicago: Encyclopaedia Britannica, 2010. – Vol. 26. – P. 480-485.
[18] https://kinginstitute.stanford.edu/encyclopedia/i-have-dream (murojaat sanasi: 04.04.2025).
[19] Tarjima muallifniki.
[20] URL: https://www.nytimes.com/books/98/07/05/specials/lee-mockingbird.html (murojaat sanasi: 04.10.2025).
[21] Plessy v. Ferguson, 163 U.S. 537 (1896). – AQSh Oliy sudi qarori, “separate but equal” prinsipining konstitutsiyaviy asosini belgilagan hujjat.

Hoover carts flicked flies in the sweltering shade of the live oaks on the square"[22] – *"Meykomb ko'hna shahar edi. Yomg'irli havoda ko'chalarning shiltasi chiqib ketardi, yo'laklarda yovvoyi o'tlar o'sib yotardi, maydondagi sud binosi cho'kib, qiyshayib qolgandi. Negadir u paytlar ob-havo ham issiqroq edi: yoz kunlari qora itlar qiynalardi, maydondagi eman daraxti soyasi esa jaziramadan qutqara olmasdi va kichik aravalarga qo'shilgan oriq xachirlar jon achchig'ida dumlari bilan chivinlarni haydardi"*[23].

Biz ushbu manzarani Harper Lining badiiy realizm uslubidagi semantik ochilish nuqtasi deb baholaymiz. Shahar tasviri orqali muallif keyingi voqealarning ijtimoiy-madaniy fonini belgilab beradi: irqiy adolatsizlik, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovut va insoniylik mezonlarining yemirilishiOlingan ilmiy natijalar Harper Lining "*Mazaxchini o'ldirish*" romani shaxsiy xotira, bolalik nigohi va tarixiy-ijtimoiy voqelik uyg'unligida shakllangan badiiy matn ekanini ko'rsatadi. Muallif Monrovill muhiti, oilaviy qadriyatlar va bolalik davri kuzatuvlarini badiiy to'qima bilan birlashtirib, irqiy tengsizlik, adolat, inson sha'ni va axloqiy mas'uliyat muammolarini ijtimoiy-falsafiy mazmunda talqin qiladi. Attikus Finch, Skaut va boshqa obrazlar tizimi orqali individual kechinmalar umumlashgan badiiy konsept darajasiga ko'tariladi, Amerika janubiga xos tarixiy muhit esa universal insoniylik mezonlari bilan bog'lanadi. Shu jihatdan avtobiografik unsurlar romanda oddiy xotira shaklida emas, balki jamiyat ongidagi ziddiyatlarni ochuvchi poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Harper Lining realistik tasvir usuli, axloqiy pozitsiyasi va insonparvarlik g'oyalari "*Mazaxchini o'ldirish*" romanini XX asr Amerika adabiyotida ijtimoiy adolat, vijdon va inson qadrini yorituvchi muhim badiiy hodisa sifatida baholash imkonini beradi. Bu o'rinda avtobiografik unsurlar romanning asosiy maqsadi emas, balki ijtimoiy ziddiyatlarni ochuvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Harper Li shaxsiy kuzatuvlarni adolat, vijdon va inson qadrini yorituvchi umumiy badiiy konseptga aylantirilgan va teran tahlil qilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **"Mazaxchini o'ldirish" va "Jasper Jons" romanlarida obrazlararo funksional yaqinlik va transformatsiya"** deb nomlanadi. Ushbu faslida adabiy qahramonlar tizimi va badiiy obrazlarning intertekstual hamda estetik transformatsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida Harper Li va Kreyg Silvi asarlarida shakllangan obrazlar tizimining ichki mantiqiy bog'liqligi, ularning g'oyaviy-falsafiy o'zgarishlari va ijtimoiy kontekstga mos ravishda qayta talqin qilinishi ilmiy asosda yoritilgan.

Romanning kirish qismida ingliz shoiri va adabiy tanqidchisi Charlz Lemning *"Nazarimda advokatlar ham qachonlardir bola bo'lishgan"*[24] - "*Lawyers, I suppose, were children once*"[25] degan iqtibosi keltiriladi. Bu so'zlar asar uchun epigraf sifatida tanlangan bo'lib, ular ramziy jihatdan butun roman mazmunining konseptual asosini tashkil etadi. Intertekstual ishoraning semantik yukida nafaqat

[22] Lee, Harper. To Kill a Mockingbird. – New York: HarperCollins Publishers, 2010. – P. 5-6. – URL: https://www.harpercollins.com/products/to-kill-a-mockingbird-harper-lee (murojaat sanasi: 04.10.2025).
[23] Li H. Mazaxchini o'ldirish. / Ingliz tilidan Mamadaliyeva M. tarj. – Toshkent: "Akademnashr", 2025. – B. 9.
[24] Li H. Mazaxchini o'ldirish. / Ingliz tilidan Mamadaliyeva M. tarj. – Toshkent: "Akademnashr", 2025. – B. 5.
[25]Lamb, Charles. Essays of Elia. – London: Taylor and Hessey, 1823. – P. 115.

shaxsning hayotiy tajribasi va o‘sish jarayoni, balki insoniyatning axloqiy ildizlariga qaytish g‘oyasi mujassamdir.

Romandagi obrazlar tizimi o‘zaro kontrast va ramzlar orqali shakllanadi. Harper Lining Attikus Finch obrazi – adolat, inson sha’ni va axloqiy qat’iyat timsolidir. U bolalarga shunday deydi: *“You never really understand a person until you consider things from his point of view-… until you climb into his skin and walk around in it.”*[26] *– Narsalarga insonlarning ko‘zi bilan qaramasang, ularni hech qachon tushuna olmaysan….Ularning o‘rniga o‘zingni qo‘yib ko‘rishing kerak.*[27]. Bu fikr “Mazaxchini o‘ldirish” romanining axloqiy markaziga aylangan. Attikus o‘z davrining ijtimoiy qonunlariga emas, inson vijdoniga tayanadi. Shu orqali u bolalarga eng muhim darsni - adolatni yurak orqali his etish zarurligini – o‘rgatadi.

2.3.1-jadval.

“Mazaxchini o‘ldirish” va “Jasper Jons” romanlaridagi qahramonlar tizimining intertekstual-komparativ tahlili.

Qahramon	Asar	Badiiy funksiyasi	Axloqiy pozitsiyasi	Intertekstual o‘xshashlik va farqlar
Skaut Finch	*Mazaxchini o‘ldirish*	Bolalik nigohi orqali jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy muammolarni ochib beradi; o‘quvchini sof nigoh bilan haqiqatni anglashga undaydi.	Halollik, empatiya va adolat tamoyillariga sodiq; jamiyatdagi stereotiplarga qarshi ongli pozitsiya egallaydi.	Charli Baktin bilan umumiylik – har ikkisi bolalik tajribasi orqali jamiyatdagi adolatsizlikni idrok etadi. Skaut jamiyatning tashqi ziddiyatlarini ochsa, Charli ichki ruhiy jarayonlarni ko‘rsatadi.
Charli Baktin	*Jasper Jons*	Ichki monologlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni falsafiy darajada tahlil qiladi; bolalik tajribasini ekzistensial anglash darajasiga ko‘taradi.	Vijdoniy mas’uliyat va haqiqatni izlashga asoslangan axloqiy pozitsiya; stereotiplarga qarshi faol ichki qarshilikni ifodalaydi.	Skaut bilan o‘xshash – adolatsizlikni bola nigohi bilan ko‘radi, ammo farqli jihat – Charli jamiyatdagi jimlik va ichki ziddiyatlarni chuqurroq anglaydi.
Tom Robinson	*Mazaxchini o‘ldirish*	Irqiy adolatsizlikning ramziy markazi; begunoh bo‘lsa-da, jamiyat stereotiplari qurboni.	Passiv, ammo axloqiy jihatdan ustun; begunohligiga qaramay, ijtimoiy tuzum qurboni sifatida tasvirlanadi.	Jasper Jons bilan umumiylik – ikkalasi ham jamiyat tomonidan noto‘g‘ri hukm qilinadi. Tom sudda aybsizligini isbotlay olmaydi, Japer esa jinoyatga aloqasi bo‘lmasada, hibsga olinib, so‘roq qilinadi.
Jasper Jons	*Jasper Jons*	Irqiy kamsitilishdan aziyat chekkan markaziy qahramonlardan; jinoyatga aloqasi bo‘lmasada, hibsga olinib, so‘roq qilingan.	Jamiyat tomonidan tayini yo‘q bezori sifatida tasvirlangan; aslida esa hech kimga zarari tegmaydigan, hayotda qiynalgan	Tom Robinson bilan o‘xshashlik- ikkalasi ham irqiy tafovut tufayli aybsiz aybdorlar, ammo Tom sud hukmini ko‘tarolmay fojiyali vafot etadi, Jasper esa dalilsiz hibsga olinib, yana qo‘yib

[26] Harper Lee. To Kill a Mockingbird. - New York: J.B. Lippincott Company, 1960. – P. 30.
[27] Li H. Mazaxchini o‘ldirish. / Ingliz tilidan Mamadaliyeva M. tarj. – Toshkent: “Akademnashr”, 2025. – B. 49.

Qahramon	Asar	Badiiy funksiyasi	Axloqiy pozitsiyasi	Intertekstual o‘xshashlik va farqlar
			o‘spirim bola.	yuboriladi va Karigonni tark etadi.
Bu Redli	*Mazaxchini o‘ldirish*	Jamiyatdagi nohaq xulosa chiqarilganligi sababli ajratib qoldirilgan persanaj; aslida bolalarcha sof va toza shaxs bo‘lib, bosh qahramonlarni o‘limdan saqlab qoladi.	Jamiyat tomonidan axloqsiz, shavqatsiz mahluq sifatida tasvirlangan bo‘lsada, aslida oq ko‘ngil, bolalarcha ong bilan yashaydi.	Mad Jack Lionel orqali takrorlanish – ikkalasi ham jamiyat tomonidan ajratib qo‘yilgan personajlar; aybsiz aybdor hisoblanib, yolg‘iz hayot kechiradi, ommaga chiqmaydi.
Mad Jack Lionel	*Jasper Jons*	Jamiyat yaratgan noto‘g‘ri tasavvurlar va stigmatizatsiya(ning badiiy ifodasi; ijtimoiy stereotiplarning tanqidiy ochilishi.	Sukut orqali kechmishini anglaydi va ichki poklanishga erishadi; ijtimoiy hukmlarga qarshi passiv qarshilik ko‘rsatadi.	Bu Redli bilan o‘xshash – jamiyat stereotiplari qurboni. Farqi – Lionelning sukuti ichki kechirim va ruhiy poklanish jarayonini ifodalaydi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, “*Jasper Jons*” romanidagi obrazlar Harper Lining “*Mazaxchini o‘ldirish*” asaridagi obrazlarni bevosita takrorlamaydi, balki ularning badiiy funksiyasini yangi madaniy kontekstda qayta talqin qiladi. Ayniqsa, Skaut Finch – Charli Baktin, Tom Robinson – Jasper Jons, Bu Redli – Mad Jack Lionel obrazlari o‘rtasidagi yaqinlik intertekstual aloqaning obrazlar tizimi orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Agar Harper Lining “*Mazaxchini o‘ldirish*” romanidagi qahramonlar ijtimoiy tizim tomonidan yaratilgan tashqi adolatsizlik mexanizmlariga qarshi kurashni amalga oshirsalar, Kreyg Silvining “*Jasper Jons*” asaridagi obrazlar bu kurashni asosan ichki psixologik va falsafiy maydonga ko‘chiradi[28]. Bu badiiy yondashuvda adolat konsepsiyasi endilikda faqat ijtimoiy institutlar faoliyati bilan emas, balki insonning vijdoniy tanlovi va ichki axloqiy me’yorlari bilan belgilanadigan universal kategoriya sifatida talqin etiladi[29].

Ilmiy jihatdan olganda, obrazlarning transformatsiyasi zamonaviy adabiyotda estetik yangilanish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. U klassik realizm an’analarini zamonaviy psixologik va falsafiy talqinlar bilan boyitib, intertekstual muloqot orqali badiiy tafakkurning evolyutsiyasini ta’minlaydi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**“Jasper Jons” romanida “Mazaxchini o‘ldirish” asarining intertekstual talqini”** deb nomlangan va uch fasldan iborat. Mazkur bobda zamonaviy adabiyotda klassik asarlarning izlari, ularning qayta talqini hamda intertekstual asosda badiiy yangilanish jarayoni tahlil qilingan. Adabiyot taraqqiyotida klassik merosning o‘rni faqat tarixiy yoki estetik hodisa sifatida emas, balki badiiy tafakkurning uzluksiz evolyutsiyasini ta’minlovchi manba sifatida baholangan. Shu sababli zamonaviy adabiyotda klassik matnlarning

[28]Lee, H. To Kill a Mockingbird. – New York: J. B. Lippincott & Co., 1960. – 281 p.
[29] Silvey, C. Jasper Jones. – Sydney: Allen & Unwin, 2009. – 297 p.

izchil davomiyligi, yangi estetik shakllar va falsafiy mazmunlar orqali qayta talqin etilishi muhim ilmiy hodisa sifatida ko‘rilgan.

Uchinchi bobning birinchi fasli “**Klassik roman an’analarining XXI asr adabiyotida intertekstual qayta talqini**” deb nomlanadi. Unda adabiyot taraqqiyotida klassik merosning o‘rni va uning zamonaviy badiiy tafakkurga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Faslda klassik romanlarning badiiy-estetik an’analari, janr xususiyatlari hamda g‘oyaviy-falsafiy tamoyillari zamonaviy yozuvchilar ijodida qanday shaklda davom etgani aniqlangan.

Ushbu xulosani ilgari surish mumkinki, klassik asarlarning badiiy va ma’naviy qudrati inkor qilinmaydi, balki yangi davr ehtiyojlari asosida qayta talqin qilinadi. Adabiyot o‘z tarixidan uzilmaydi, balki undan kuch olib, yangi bosqichga ko‘tariladi.



3.3.1-rasm. **Spiral model: klassik romanlardan zamonaviy adabiyotga badiiy va falsafiy g‘oyalarning intertekstual uzviyligi**.

Spiral model klassik romanlardan boshlangan badiiy va falsafiy jarayonning intertekstual talqinlar, janr transformatsiyasi hamda yangi axloqiy paradigmalar orqali zamonaviy matnlarga uzluksiz o‘tishini ifodalaydi. Mazkur model klassik merosning zamonaviy adabiyotdagi ijodiy davomiyligini, badiiy tafakkurning bosqichma-bosqich takomillashuvini hamda madaniy xotira va adabiy izchillikning doimiy rivojlanishini ko‘rsatadi. Shu tariqa, spiral model adabiyotdagi estetik yangilanish va falsafiy izchillikni yagona tizim sifatida tushuntiruvchi ilmiy-nazariy konsept darajasiga ko‘tarilgan.

Shu tariqa, klassik romanlarning ta’siri zamonaviy adabiyotda madaniy davomiylik va janr evolyutsiyasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaralgan. Ular badiiy tafakkurning uzluksiz rivojlanishiga turtki berib, yangi falsafiy g‘oyalar va axloqiy paradigmalar uchun konseptual asos yaratgan.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli – “**Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanida Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” asariga intertekstual ishoralar va ularning badiiy-estetik talqini**” deb nomlanib, unda zamonaviy adabiyotning klassik an’analar bilan olib boradigan ijodiy muloqoti, madaniy xotira va g‘oyaviy izchillik jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Faslda Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanida Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” asariga

bildirilgan intertekstual ishoralar, ularning badiiy-estetik xususiyatlari hamda zamonaviy tafakkur doirasida qayta talqin etilish jarayoni yoritilgan. Shu orqali yozuvchining klassik matn bilan olib borgan ijodiy dialogi, madaniy merosni zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda yangicha talqin etish mexanizmlari aniqlangan.

Zamonaviy yozuvchi uchun intertekstual yondashuv avvalgi badiiy tajriba bilan muloqot o‘rnatish, uni yangi ijtimoiy-madaniy sharoitga mos holda qayta talqin qilish imkonini bergan. “Jasper Jons” romani misolida bu jarayon Harper Lining romanidagi adolat, vijdon, axloqiy tanlov va inson sha’ni kabi umuminsoniy g‘oyalarning yangi davr kontekstida qayta anglanishini ko‘rsatgan.

Jasper va Charli obrazlari nafaqat jamiyatdagi muammolarni aks ettiradi, balki insonning o‘zini anglash jarayoni, vijdon bilan kurashuvi hamda hayotning murakkab va ko‘p qirrali ma’nosini qidirishi kabi ekzistensial mavzularni ham ochib beradi. Bu yondashuv zamonaviy roman poetikasida badiiy matn orqali ijtimoiy va falsafiy ongni birlashtirishga intilishni ifodalaydi[30].

Bu psixologik chuqurlik asarda qahramonlarning ichki monologlari orqali ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Masalan, Charli o‘z kechinmalarini quyidagicha ifodalaydi:*“I feel like I’m carrying a weight that isn’t mine. But I can’t put it down.”*[31] - *Men o‘zimga tegishli bo‘lmagan yukni ko‘tarib yurgandekman. Lekin uni pastga qo‘yolmayman.*[32] Bu iqtibos qahramonning ichki mas’uliyat hissi va vijdon bilan kurashini ifodalaydi. Silvi inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beradi, bu esa klassik romanlardagi ijtimoiy yondashuvga nisbatan yangi badiiy bosqichni belgilaydi.

Skautning bolalik soddaligidan chiqib, ijtimoiy adolatsizlikni anglay boshlashi jarayoni ham chuqur psixologik kechinmalar orqali tasvirlanadi. Attikus Finchning mashhur so‘zlari bu jarayonning axloqiy asosini ifodalaydi: *“I wanted you to see what real courage is, instead of getting the idea that courage is a man with a gun in his hand. It’s when you know you’re licked before you begin but you begin anyway and you see it through no matter what.”*[33]*- Men sening haqiqiy jasurlik nimaligini, botirlik qo‘lda miltiq tutish emasligini ko‘rishingni istagandim. Haqiqiy jasurlik mag‘lub bo‘lishingni oldindan bilsang-da, kurashishdan qo‘rqmasliging.*[34].

3.2.1-jadval.

“Mazaxchini o‘ldirish” va “Jasper Jons” romanlarida axloqiy konsepsiyaning badiiy talqini

Aspekt	“Mazaxchini o‘ldirish” (Harper Li)	“Jasper Jons” (Kreyg Silvi)	Tahliliy xulosa
Qahramonning ichki kurashi	Skaut jamiyatdagi nohaqlikni anglash jarayonida soddalikdan yetuklik sari o‘sadi.	Charli jamiyatdagi adolatsizlikni anglash bilan birga o‘z qo‘rquvi va shubhalari bilan	Har ikki asarda axloqiy shakllanish jarayoni markazda turadi, biroq Silvi bu jarayonni chuqur

[30] Tunca, Deniz. Intertextuality and Ethical Reading: Teaching “To Kill a Mockingbird”. – London: Palgrave Macmillan, 2015. – P. 110-113.
[31] Silvey, C. Jasper Jones. – Sydney: Allen & Unwin, 2009. – P. 214.
[32] Tarjima muallifniki.
[33] Harper Lee. To Kill a Mockingbird. – New York: J.B. Lippincott Company, 1960. – P. 112 p.
[34] Li H. Mazaxchini o‘ldirish. / Ingliz tilidan Mamadaliyeva M. tarj. . – Toshkent: “Akademnashr”, 2025. – B. 178.

	Attikusning jasorat haqidagi gapi uning axloqiy ongini shakllantiradi.	kurashadi. Uning voyaga yetishi ichki ziddiyatlar orqali kechadi.	psixologik qatlam bilan boyitadi.
Adolat tushunchasi	Adolat sud tizimi va qonun orqali ko‘rsatiladi; inson sha’ni ijtimoiy tizim bilan bog‘liq.	Adolat tushunchasi shaxsiy mas’uliyat va vijdon bilan bog‘lanadi; inson o‘z qarorini ichki tanlov asosida qabul qiladi.	Zamonaviy adabiyotda adolat tushunchasi tashqi tizimdan ichki ong darajasiga ko‘tarilgan.
Marginal guruhlarning talqini	Qora tanlilar ovozi bilvosita (Attikus va Skaut orqali) eshitiladi.	Jasper to‘g‘ridan-to‘g‘ri narrativ ovozga ega va voqealarning faol ishtirokchisidir.	Marginal guruhlarning ovozi zamonaviy matnda mustaqil va faol badiiy kuchga aylanadi.
Badiiy yondashuv	Realistik uslub orqali ijtimoiy tanqid amalga oshiriladi.	Psixologik evrilish va ichki monolog asosida falsafiy tahlil kuchaytiriladi.	Silvi klassik realizmni chuqur psixologik va ekzistensial tahlil bilan uyg‘unlashtiradi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi jadval orqali ikki asar o‘rtasidagi asosiy intertekstual bog‘liqliklar yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi. Harper Li asarida ijtimoiy adolat va inson sha’ni masalalari tashqi tizim bilan bog‘liq tarzda talqin qilingan bo‘lsa, Kreyg Silvi bu masalalarni insonning ichki dunyosi, vijdoniy tanlovlari va ruhiy kurashlari bilan bog‘laydi. Shu jihatdan “Jasper Jons” nafaqat “Mazaxchini o‘ldirish” g‘oyalarini davom ettiradi, balki ularni yanada murakkab psixologik va falsafiy qatlamlar bilan boyitadi.

“Jasper Jons” romanining boshida Jasper Charliga o‘z sirini oshkor etganida, unga quyidagicha deydi: *“You got to understand, Charlie. If I tell you this, you can’t ever tell anyone. Ever. You got to promise.”*[35] *- Tushun, Charli. Agar men senga buni aytsam, sen hech kimga aytolmaysan. Hech qachon. So‘z berishing kerak*”[36]. Bu oddiy jumla emas – u butun roman davomida jim qolish etikasini belgilaydi. Jasperning so‘zi haqiqatni himoya qilish emas, balki haqiqatni yashirish bilan bog‘liq. Shu tarzda Silvi jamiyatdagi qo‘rquv va vijdon o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Bu motiv “Mazaxchini o‘ldirish”dagi Attikus Finchning mashhur so‘zlari bilan ma’nodosh*:“The one thing that doesn’t abide by majority rule is a person’s conscience.”[37] Insondagi ko‘pchilikka bo‘ysunmaydigan yagona narsa uning vijdonidir.[38].*

Ilmiy tahlillar natijasida aniqlanishicha, Kreyg Silvining *“Jasper Jones”* romanida Harper Lining *“Mazaxchini o‘ldirish”* asariga bildirilgan intertekstual ishoralar badiiy tafakkurning davomiyligini ta’minlagan. Yozuvchi klassik matndagi ijtimoiy adolat, axloqiy mas’uliyat va inson sha’ni g‘oyalarini yangi ijtimoiy-madaniy kontekstda qayta talqin etib, ularni zamonaviy falsafiy mazmun bilan boyitgan.

[35] Silvey, C. Jasper Jones. - Sydney: Allen & Unwin, 2009, P. 32.
[36] Tarjima muallifniki
[37] Lee, H. To Kill a Mockingbird. - New York: Harper Perennial Modern Classics, 2006. – P. 105.
[38] Li H. Mazaxchini o‘ldirish. / Ingliz tilidan Mamadaliyeva M. tarj. – Toshkent: “Akademnashr”, 2025. – B. 167.

Silvi romanida intertekstual aloqalar shunchaki matnlararo ishora darajasida emas, balki badiiy va estetik yangilanish mexanizmi sifatida namoyon bo‘lgan. U klassik merosni zamonaviy tafakkur paradigmasi bilan uyg‘unlashtirib, bola nigohi orqali inson va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy ziddiyatni chuqur psixologik darajada yoritgan.Shu tariqa, *“Jasper Jones”* romanida *“Mazaxchini o‘ldirish”* asariga murojaatlar zamonaviy adabiyotda madaniy xotira, axloqiy refleksiya va badiiy transformatsiyaning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatgan. Bu jarayon intertekstuallikning adabiy merosni yangilovchi va uni falsafiy-estetik jihatdan boyituvchi ijodiy mexanizm sifatidagi ahamiyatini tasdiqlagan.

Uchinchi bobning uchinchi fasli – **“Mazaxchini o‘ldirish” va “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi intertekstual aloqaning falsafiy-badiiy talqini**” deb nomlangan bo‘lib, unda ikki asar o‘rtasidagi g‘oyaviy, mazmuniy va falsafiy uzviylik ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Faslda Harper Li va Kreyg Silvi ijodida insonning axloqiy tanlovi, vijdon, adolat va shaxsiy mas’uliyat masalalarining badiiy ifodasi hamda ularning o‘zaro muloqot jarayonida qanday yangi ma’no kasb etgani ochib berilgan.

Harper Lining asarida jimlik va so‘z motivlari markaziy semantik vazifani bajaradi. Scout uchun haqiqatni aytish doimo xavf bilan bog‘liq – u ijtimoiy konformizm va ichki vijdon o‘rtasida turgan insonni ramziy ifodalaydi. Shunday bir sahna bor, u yerda Scout aytadi: *“Atticus, he was real nice.” – “Most people are, Scout, when you finally see them.”*[39] – “Attikus, u juda yaxshi odam ekan. – Ko‘p odamlar shunday, Skaut, ularni tushunish kerak, xolos”[40].

Bu dialog roman mohiyatini belgilaydi – haqiqatni anglash uchun inson tashqi ko‘rinishdan ichki mohiyatni “ko‘rish”ni o‘rganishi kerak. Shu estetik tamoyil “Jasper Jons”da yangicha shaklda davom etadi. Charlining ichki monologi ham shu “ko‘rish” jarayonini aks ettiradi: “*It’s hard to see things for what they are, when you’re stuck inside them.*”[41] – “Bir narsaning asl mohiyatini ko‘rish qiyin, agar sen o‘sha narsaning ichidagina yashayotgan bo‘lsang”[42].

Yana bir muhim jihat – jimlik va ovozi chiqmagan haqiqat motivi. “Mazaxchini o‘ldirish”da jamiyat Tom Robinsonning haqiqatini eshitishni istamaydi. Uning ovozi ijtimoiy stereotiplar orasida “yo‘qoladi”, biroq Attikusning nutqi orqali u adolat ramziga aylanadi. Sud jarayonidagi mashhur nutq shunday yakunlanadi: *“But there is one way in this country in which all men are created equal... That institution, gentlemen, is a court.”*[43] *– Biroq bu davlatda insonlarning barchasini o‘zaro teng qiluvchi yagona joy bor. Bu muassasa, hurmatli jentlmenlar, sud deb ataladi.* [44].

---

[39] Lee, H. To Kill a Mockingbird. - New York: HarperCollins, 1960. – P. 295.
[40] Li H. Mazaxchini o‘ldirish. / Ingliz tilidan Mamadaliyeva M. tarj. – Toshkent: “Akademnashr”, 2025. – B. 447.
[41] Silvey, C. Jasper Jones. - Sydney: Allen & Unwin, 2009. – P. 188.
[42] Tarjima muallifniki.
[43] Lee, H. To Kill a Mockingbird. - New York: HarperCollins, 1960. – P. 241.
[44] Li H. Mazaxchini o‘ldirish. / Ingliz tilidan Mamadaliyeva M. tarj. – Toshkent: “Akademnashr”, 2025. – B. 326.

Harper Li uchun jimlik – jamiyat tomonidan bostirilgan haqiqat; Silvi uchun esa u – omon qolishning ichki instinkti, insonning ruhiy himoya mexanizmi. Shu jihatdan qaraganda, “Jasper Jons” “Mazaxchini o‘ldirish”dagi jimlik metaforasini yangi ekzistensial va psixologik darajaga olib chiqadi.

Ushbu estetik dialog yana ramzlar tizimi orqali ham davom etadi. Harper Li romani Mockingbird (mazaxchi qush) ramzi bilan mashhur. Attikus shunday deydi: “*It’s a sin to kill a mockingbird... Mockingbirds don’t do one thing but make music for us to enjoy.*”[45] – *Mazaxchini o‘ldirish gunoh... Mazaxchi eng beozor qush, u faqat biz rohatlanishimiz uchun sayraydi*[46]. Bu ramz begunohlik, poklik va insoniy yaxshilikning allegoriyasidir. Silvi bu ramzni o‘z kontekstida g‘ira-shira tunda yashiringan jasad obrazi bilan almashtiradi. “Jasper Jons”da har bir haqiqat qorong‘ilikda, jimlikda, yashirinishda mavjud – bu esa yangi davr adabiyotining “begunohlikni yo‘qotish” konsepsiyasini bildiradi. Jasper o‘zini va boshqalarni himoya qilish uchun haqiqatni yashiradi – bu yangi avlodning axloqiy dilemmasidir.

Har ikkala asarda insoniylik konsepsiyasi ham tubdan o‘zgaradi. Harper Li insoniylikni “empatiya” bilan o‘lchaydi – boshqa odamni tushunish, uni “ko‘ra bilish” orqali.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar asosida xulosa qilish joizki, *“Mazaxchini o‘ldirish”* va *“Jasper Jons”* romanlari o‘rtasidagi badiiy-falsafiy uzviylik inson vijdoni, adolat va axloqiy tanlov masalalarining zamonaviy talqinini ochib bergan. Harper Li tomonidan ilgari surilgan axloqiy g‘oyalar Kreyg Silvi asarida global va ijtimoiy kontekstda qayta shakllanib, insoniyat tafakkurining uzluksiz rivojini ifodalagan. Shu tariqa, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat insonning ichki uyg‘onishi, o‘zlikni anglash hamda axloqiy mas’uliyatni his etish jarayoni sifatida yangicha badiiy-falsafiy mazmun kasb etgan.

XULOSA

1. Intertekstuallik nazariyasi badiiy matnni alohida, yopiq estetik hodisa sifatida emas, balki boshqa matnlar, madaniy kodlar, tarixiy xotira va adabiy an’analar bilan uzviy aloqada shakllanadigan ochiq semantik tizim sifatida o‘rganish imkonini bergan. Mazkur nazariy yondashuv Harper Lining “Mazaxchini o‘ldirish” va Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi matnlararo aloqalarni aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan intertekstual tahlil ikki asar o‘rtasidagi bog‘liqlikni faqat mavzuviy yaqinlik doirasida emas, balki syujet qurilishi, obrazlar tizimi, motivlar va g‘oyaviy-estetik qatlamlar kesimida o‘rganishga imkon bergan.

2. Adabiyotshunoslikda intertekstual aloqalarning iqtibos, allyuziya, reminissensiya, syujet parallelizmi, motivlar uyg‘unligi va obrazlar transformatsiyasi kabi shakllari nazariy jihatdan asoslangan. Ushbu mezonlar

[45] Lee, H. To Kill a Mockingbird. - New York: HarperCollins, 1960. – P. 90.
[46] Li H. Mazaxchini o‘ldirish. / Ingliz tilidan Mamadaliyeva M. tarj. – Toshkent: “Akademnashr”, 2025. – B. 144.

tadqiqotning keyingi boblarida “Mazaxchini o‘ldirish” va “Jasper Jons” romanlari o‘rtasidagi badiiy bog‘lanishlarni izchil tahlil qilish uchun nazariy tayanch vazifasini bajargan. Ayniqsa, klassik roman an’anasining zamonaviy roman poetikasida qayta talqin qilinishi tadqiqotning ilmiy yangiligida belgilangan syujet, obraz va ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar kesimidagi yondashuv bilan bevosita bog‘langan.

3. Klassik va zamonaviy romanlar o‘rtasidagi intertekstual aloqalarni o‘rganish Harper Li va Kreyg Silvi asarlari misolida Amerika hamda Avstraliya adabiy-madaniy kontekstlari o‘rtasidagi dialogik munosabatni ochishga xizmat qilgan. “Mazaxchini o‘ldirish” romanida shakllangan adolat, insonparvarlik, jamiyat hukmi va bolalik nigohi orqali ijtimoiy haqiqatni anglash motivlari “Jasper Jons” asarida yangi tarixiy-madaniy sharoitda qayta faollashgan. Bu holat klassik adabiy an’ananing zamonaviy badiiy tafakkurda davom etishini ko‘rsatgan.

“Mazaxchini o‘ldirish” va “Jasper Jons” romanlarida adolat, insonparvarlik, ijtimoiy tenglik va axloqiy mas’uliyat motivlari turli milliy-madaniy muhitda talqin qilingan bo‘lsa-da, har ikki asarda ular jamiyat hukmi, shaxsiy vijdon va inson sha’ni muammosi bilan uzviy bog‘langan. Harper Li romanida bu masalalar irqiy tengsizlik va sud jarayoni orqali ochilsa, Kreyg Silvi asarida ular etnik stereotiplar, jamiyat bosimi va shaxsiy ruhiy kechinmalar orqali badiiy ifodasini topgan. Shu tariqa, ikki roman o‘rtasidagi intertekstual bog‘liqlik ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar darajasida aniqlangan.

4. Harper Li romanidagi begunoh shaxsning jamiyat tomonidan ayblanishi, bolalik nigohi orqali haqiqatni anglash, adolat izlash va voyaga yetish motivlari “Jasper Jons” romanida Avstraliya adabiy-madaniy muhiti doirasida yangicha semantik mazmun kasb etgan. Tom Robinson obrazida irqiy adolatsizlik qurboni talqin qilinsa, Jasper Jons obrazida etnik begonalashtirish va ijtimoiy ishonchsizlik muammosi badiiylashtirilgan. Bu jihat tadqiqotning ilmiy yangiligida ko‘rsatilgan “Mazaxchini o‘ldirish”ga xos motivlarning “Jasper Jons”da qayta talqin qilinishi haqidagi fikrni tasdiqlagan.

5. Skaut Finch – Charli Baktin, Tom Robinson – Jasper Jons, Bu Redli – Mad Jack Lionel obrazlari o‘rtasidagi funksional yaqinliklar ikki roman obrazlar tizimining intertekstual asosda qurilganini ko‘rsatgan. Skaut va Charli haqiqatni anglash jarayonidagi qahramonlar sifatida, Tom Robinson va Jasper Jons jamiyat hukmiga duch kelgan begunoh shaxslar sifatida, Bu Redli va Mad Jack Lionel esa ijtimoiy muhitdan chetlashtirilgan sirli obrazlar sifatida talqin qilingan. Mazkur obrazlararo mosliklar tadqiqotda belgilangan obrazlar transformatsiyasi va funksional yaqinlik masalasini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qilgan.

6. Klassik romanlarning zamonaviy adabiyotdagi hayoti intertekstual mexanizmlar, janr transformatsiyasi, madaniy xotira va badiiy izchillikning faol ishlashi orqali ta’minlangan. Alluziya, reministsensiya, parodiya va pastish kabi usullar yangi matnlarning semantik imkoniyatlarini boyitgan va klassik merosning yangi kontekstda qayta anglanishiga xizmat qilgan. Janr transformatsiyasi badiiy

shakllarning moslashuvchanligini ta’minlagan, madaniy xotira esa o‘tgan davr tajribalarini yangi falsafiy mazmunda jonlantirgan.

7. “Jasper Jons” romanida “Mazaxchini o‘ldirish” asariga xos klassik badiiy an’ana oddiy takror shaklida emas, balki XXI asr romani poetikasi, Avstraliya ijtimoiy muhiti va zamonaviy axloqiy muammolar bilan bog‘liq holda qayta talqin qilingan. Harper Li romanidagi sud, jamiyat hukmi va irqiy adolatsizlik motivlari Silvi asarida kichik shaharcha muhiti, etnik begonalashtirish va ichki ruhiy ziddiyatlar orqali ifodalangan. Bu holat klassik matnning zamonaviy roman tarkibida yangi badiiy-estetik vazifa bajarganini ko‘rsatgan.

8. Kreyg Silvining “Jasper Jons” romanidagi intertekstual ishoralar syujet, obraz, motiv va ramziy qatlamlarda namoyon bo‘lib, Harper Li romanidagi adolat, begunohlik, jamiyat bosimi va haqiqatni anglash g‘oyalarining yangi badiiy shaklda davom ettirilganini ko‘rsatgan. “Mazaxchini o‘ldirish”da haqiqat ko‘proq tashqi ijtimoiy maydon va sud jarayoni orqali ochilsa, “Jasper Jons”da u qahramonlarning ichki monologi, ruhiy iztirobi va vijdoniy tanlovi orqali talqin qilingan. Shu asosda Silvi romani Harper Li asari bilan intertekstual muloqotga kirishgan mustaqil badiiy hodisa sifatida baholangan.

9. Ikki roman o‘rtasidagi intertekstual aloqalar irqiy va etnik stereotiplar, jamiyat hukmi, vijdon, insonparvarlik, erkinlik va haqiqatni anglash kabi masalalarni milliy muammo doirasidan chiqarib, universal badiiy-falsafiy mazmun darajasida talqin qilish imkonini bergan. Harper Li asarida Amerika jamiyatidagi irqiy tengsizlik muammosi ochilgan bo‘lsa, Kreyg Silvi romanida Avstraliya muhitidagi etnik chetlashtirish va ijtimoiy gumon poetik talqin qilingan. Shu tariqa, har ikki roman o‘rtasidagi matnlararo muloqot adabiy an’ana, madaniy xotira va zamonaviy badiiy tafakkur uzviyligini asoslashga xizmat qilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

АХРОРОВА НАРГИЗА РАХМОНОВНА

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ СВЯЗИ МЕЖДУ РОМАНОМ ХАРПЕР ЛИ «УБИТЬ ПЕРЕСМЕШНИКА» И РОМАНОМ КРЭЙГА СИЛВИ «ДЖАСПЕР ДЖОНС»

10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2025.2.PhD/Fil6098.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (русском, узбекском, английском) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Тоирова Дилфуза Файзуллаевна** доктор филологических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	**Умурова Гузал Хатамовна** доктор филологических наук (DSc), профессор
	Икромхонова Фируза Икромовна доктор филологических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	**Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «14» ноября 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел.: (+99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрированной под № 64567). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел.: (+99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «17» октября 2026 года.
(Реестр протокола рассылки № 58 от «17» октября 2026 года)

Б.А. Холиков
Председатель Научного совета по присуждению учёной степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёной степени, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А. Киселёв
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёной степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении интертекстуальный подход рассматривается как одно из важных теоретических направлений выявления связей между художественными текстами, анализа социально-духовных отношений, сформировавшихся в разные периоды и культуры. В связи с этим исследование интертекстуальной связи между романами Харпера Ли «Убить пересмешника» и Крейга Сильви «Джаспер Джонс» является одним из актуальных научных вопросов современной филологии. Межтекстовые связи в данных произведениях через семантические и структурные единицы выявляют новые смысловые пласты и служат освещению взаимодействия национальных литератур с мировым литературным процессом.

Роль данного исследования в мировом литературоведении определяется выявлением художественной интерпретации идей справедливости, гуманизма и свободы в различных национально-культурных контекстах в романах Харпера Ли «Убить пересмешника» и Крейга Сильви «Джаспер Джонс». Если в романе Харпер Ли освещаются социально-этические проблемы в американском обществе, то в произведении Крейг Сильви эти идеи продолжаются в рамках австралийской литературной среды. Процесс самосознания героев, их отношение к стереотипам в обществе и художественное выражение критерия справедливости демонстрируют диалогическую связь между двумя романами. Поэтому интертекстуальный подход служит для более глубокого раскрытия художественной ценности, культурно-исторического контекста и места этих произведений в мировом литературном процессе.

В годы независимости научные изыскания в узбекском литературоведении поднялись на новый уровень, особое внимание было уделено повторному исследованию национального литературного наследия, освещению литературных процессов в историко-культурном контексте и применению современных теоретических подходов. В частности, интертекстуальный анализ позволил глубже понять многослойное содержание художественного текста, его место в системе культурных контекстов и социально-духовную значимость. Это усилило научно-теоретическую интеграцию узбекского литературоведения с мировым литературным процессом. Государственная политика, направленная на повышение духовности молодежи и развитие культуры чтения в нашей стране, еще больше повышает научно-практическую необходимость исследований в этом направлении.

Данное диссертационное исследование в определённой мере направлено на реализацию задач, обозначенных в ряде нормативно-правовых документов Республики Узбекистан, в том числе: Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года №УП-5847 «О утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан

до 2030 года», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 6 октября 2020 года №УП-6108 «О мерах по развитию системы образования и науки в новый период развития Узбекистана», Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года №УП-5117 «О мерах по выводу деятельности по изучению иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», а также Постановлении Президента Республики Узбекистан от 2 февраля 2024 года №УП-54 «О дополнительных мерах по ускорению реформ в сфере образования». Кроме того, исследование соотносится с положениями Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года №610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» и других нормативно-правовых актов, регулирующих сферу образования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики 1. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В русском литературоведении вопросы интертекстуальности, диалогизма, текстовой семиотики, культурного кода и межтекстовой связи теоретически обоснованы в исследованиях таких ученых, как М.М.Бахтин, Ю.М.Лотман, В.Н.Топоров, Б.А.Успенский, Н.А.Фатиева, И.П.Смирнов. Взгляды М.М.Бахтина на диалогизм создали теоретическую основу для формирования интертекстуального подхода. Ю.М.Лотман показал возможности изучения художественного текста как семиотической системы. В исследованиях В.Н.Топорова и Б.А.Успенского освещены вопросы взаимосвязи текста, культуры, знака и семиотических систем. В работах Н.А.Фатеева и И.П.Смирнова интертекстуальность трактуется как сложное межтекстовое явление, возникающее через семантическую структуру художественного текста, его отношение к «чужому тексту», такие формы, как аллюзия, реминисценция и цитата[47].

В зарубежном литературоведении проблема интертекстуальности теоретически обоснована в исследованиях таких ученых, как Ю.Кристева,

[47] Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советская Россия, 1979. – 318 с.; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 384 с.; Топоров В.Н. Пространство и текст // Текст: семантика и структура. – Москва: Наука, 1983. – С. 227-284; Успенский Б.А. Семиотика искусства. – Москва: Языки русской культуры, 1995. – 360 с.; Фатеева Н.А. Интертекст в мире текстов: Контрапункт интертекстуальности. – Москва: КомКнига, 2007. – 280 с.; Смирнов И.П. Порождение интертекста: элементы интертекстуального анализа с примерами из творчества Б.Л. Пастернака. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный университет, 1995. – 189 с.

Р.Барт, Г.Дженетт, М.Риффатерре, Дж.Куллер, Л.Дженни, Г.Аллен. Ю.Кристева ввела термин "интертекстуальность" в научный оборот и интерпретировала текст как явление, существующее в постоянной связи с другими текстами[48].

В узбекском литературоведении и языкознании лингвопоэтическое, лингвокультурологическое, когнитивно-семантическое и антропоцентрическое исследование художественного текста освещено в работах таких исследователей, как М. Юлдашев, Д. Худайберганова, Д. Ф. Таирова, М. Хамидова. М. Юлдашев уделил внимание анализу языковых и лингвопоэтических особенностей художественного текста. Д. Худайберганова, исследуя текст на основе антропоцентрической парадигмы, изучила его когнитивно-семантические, лингвокультурологические и психолингвистические особенности. В исследованиях Д. Ф. Таировой получили научно-теоретическую интерпретацию вопросы художественного текста, лингвопоэтического анализа, гармонии языка и поэтических средств. В изысканиях же М. Хамидовой изучены особенности использования универсальных интертекстуальных единиц, аллюзий и прецедентных единиц в узбекском художественном тексте. В исследовании Л.У.Музафаровой на примере произведений Дж.Д.Сэлинджера проанализированы концептуализация структур знания в масштабе художественной интертекстуальности, формирование когнитивных единиц в интертекстуальном пространстве и механизмы их реализации.[49].

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, где выполнена диссертация. Исследовательская работа выполнена в соответствии с планами научно-исследовательских работ Самаркандского государственного института иностранных языков в рамках научного направления на тему "Взаимодействие языка, литературы, мышления и общества, искусственного интеллекта и цифровых исследований в Новом Узбекистане.".

Цель исследования заключается в выявлении интертекстуальных связей между романами «Убить пересмешника» Харпера Ли и «Джаспер Джонс» Крейга Сильви в аспекте сюжетного построения, системы образов, мотивов, социально-нравственных идей и национально-культурных

---

[48] Kristeva J. Word, Dialogue and Novel // The Kristeva Reader / Ed. by T. Moi. – New York: Columbia University Press, 1986. – P. 34-61.; Barthes R. The Death of the Author // Image, Music, Text / Trans. by S. Heath. – London: Fontana Press, 1977. – P. 142–148.; Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree / Trans. by C. Newman, C. Doubinsky. – Lincoln; London: University of Nebraska Press, 1997. – 490 p.; Riffaterre M. Semiotics of Poetry. – Bloomington: Indiana University Press, 1978. – 213 p.; Culler J. The Pursuit of Signs: Semiotics, Literature, Deconstruction. – London: Routledge, 1981. – 242 p.; Jenny L. The Strategy of Form // French Literary Theory Today: A Reader / Ed. by T. Todorov. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982. – P. 34-63; Allen G. Intertextuality. – London; New York: Routledge, 2000. – 238 p.

